



**TIQXMMI
MTU**
"TOSHKENT IRRIGATSİYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANİZATSİYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI"
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



MAVZU
03

EKOLOGIK BAHOLASH JARAYONINIG ASOSIY TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI



Razzakov Ruslan Ishqulovich



"Ekologiya va suv resurslarini boshqarish"
kafedrasi katta o'qituvchisi

FAN:

ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN
TA'SIRNI BAHOLASH (AMBTB)



Reja:

- **Ekologik baholashning shakllanish tarixi;**
- **Ekologik baholash jarayonining rivojlanish bosqichlari**



EKOLOGIK BAHOLASH (EB) JARAYONI RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

1. Rivojlanishning dastlabki bosqichi (XX asr 70-chi yillari boshlari)

– Ekologik baholashning asosiy tamoyillari, tashkiliy tadbirlari va analitik usullarning kirib kelishi;

2. EB miqyosini kengayishi bosqichi (XX-asr 70-chi yillari oxiri - 80-yillari boshlari)

– EB jarayoniga asta sekin ijtimoiy va boshqa omillarning (sog'liq, xavf) kiritilishi,

– Jamoatchilik ishtiroki imkoniyatini ko'payishi, ta'sirlarni boshqarishga ko'proq e'tibor berilishi;

EKOLOGIK BAHOLASH (EB) JARAYONI RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

3. EB jarayoni yo'nalishini qayta ko'rib chiqilishi bosqichi (XX-asr 80-yillar o'rtalari va oxiri)

- umumiyl natijaviy birlashgan (kumulyativ) ta'sirlarga e'tiborning oshishi;
- loyiha darajasidagi EBni – siyosat, reja, dasturlarni ishlab chiqish va boshqarish hamda monitoring, audit va boshqa loyihadan keyingi jarayonlar bilan bog'lash;

4. Barqaror rivojlanishning zamonaviy modeliga yaqinlashish (hozirgi davri)

- strategik ekologik baholashni rivojlanitirish (SEB),
- EBga halqaro kelishuvlar tomonidan belgilangan yangi talablarni qo'yilishi, (masalan, bioxilma-xillik to'g'risidagi konvensiya),
- nizoli holatlarni konsensus (kelishuv) yordamida hal qilish jarayonlarini kiritilishi.


EB JARAYONI RIVOJIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR

- **Dastlabki marta rasman** mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof muhitga ta'sirini baholash (EB) jarayoni AQShning «Atrof muhit sohasida milliy siyosat to'g'risida» gi qonuni (National Environmental Policy Actili NEPA) bilan joriy etildi. Dastlabki yillarda EB jarayoni **NEPA**-jarayoni deb yuritildi.
- Keyinroq mazkur jarayon **Environmental Impact Assessment (EIA)** deb yuritila boshladi.
- Aynan shu atama XX asr 70-yillari oxiriga kelib – «Mo'ljallanayotgan faoliyatning potentsial ekologik ta'sirini tizimli ravishda tahlil qilish va uning natijalarini qaror qabul qilishda inobatga olish» jarayonini ifodalovchi atama sifatida qo'llana boshladi.

EB JARAYONI RIVOJIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR

- **EB keyingi rivojlanish bosqichlari** nafaqat konkret ob'ektlar qurilishi loyihalari balki **Strategik qarorlarning EB:** (hududlar va tarmoqlar rivojining strategik rejalari, kompleks dasturlar, strategiyalar, me'yoriy hujjatlar va h.o.) qamrab oldi.
- Strategik qarorlarning ekologik oqibatlari tahlili **«Strategik ekologik baholash»** (SEA) nomi bilan ataldi.

EBni RIVOJLANISHINING SABABLARI



EBni RIVOJLANISHINING SABABLARI

- ❖ XIV asrdan boshlab insonlar ekologik ta'sirlarni boshqarishga harakat qiladilar (Londonda ko'mir yoqilishiga cheklash, chiqindilarni oynadan tashlash)
- ❖ Atrof muhitga - cheklanmagan miqdorda resurslarni ishlab chiqish va chiqindilarni qabul qiluvchi «hech kimniki (xo'jayinsiz) tovar (mol)» sifatida qaralishi
- ❖ Atrof muhitga ta'sirlarni oldini olish ularni keyinchalik bartaraf qilishga nisbatan qulayroq ekanligini tushunib etdi.

EBni TIZIMLARINI RIVOJLANISHINING BOSQICHLARI

EB tizimlari nisbatan yangi va tez rivojlanmoqda. EBning rivojlanish jarayoni «to'lqinli» xarakteriga ega va shartli ravishda 3 to'lqinga ajratilishi mumkin:

- ✓ **birinchi «to'lqin»**— «Atrof muhit sohasidagi milliy siyosati to'g'risidagi qonun» (NEPA) - AQSh kongressi tomonidan qabul qilinishi (**1969 y.**) va keyinchalik AQSh prezidenti R.Nikson tomonidan tasdiqlanishi.
- ✓ Ushbu qonunga binoan federal tashkilotlardan “yirik qarorlarni qabul qilish jarayonida ekologik oqibatlarni inobatga olish” talab qilingan.
- ✓ Ko'p mamlakatlarda **aynan shu yil AMBTB nomli faoliyatni boshlanishi** deb qabul qilingan.

NEPA qonuni talablariga binoan kuchli (ahamiyatli) ta'sirlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xar qanday qarorlarni qabul qilishdan oldin AMBTB o'tqazilishi lozim. Bu xaqda «Atrof muhitga bo'ladigan ta'sir xaqida bayonnomma (AMBTXB-ZVOS) » tuzilishi talab etildi.

Ushbu qonun faqat bittagina rasmiy majburiyatni belgilagan ya'ni «EB amalga oshirish va uning natijalarini barcha qiziqqan tomonlar, tashkilot va shaxslar uchun ochiq bo'lishini ta'minlash shart» deyilgan va shu sababli qonun yetarli darajada ishonchlilik bilan qabul qilinmagan.

(EB natijalari qarorni qabul qilishga ta'sir etadimi?)

EBni TIZIMLARINI RIVOJLANISHINING BOSQICHLARI

Ushbu hujjatning (EB) jamoatchilikka ochiqligi AQShning federal tashkilotlarning ishlash yo'nalishlarini qayta ko'rib, faoliyatlarini ekologizatsiyalashga majburladi.

AMBTB hujjatining ochiqligi jamoatchilikka, ekologik va boshqa tashkilotlarga **NEPA** talablarini bajarilishini nazorat qilish, AMBTBni tayyorlashni inobatga olmagan tashkilotlarni sudga berish imkoniyatlariga huquq berdi.

- **NEPA**ni bajarilishi zarurligi sababidan federal tashkilotlarga ekologlar ishga taklif etilishi boshlandi. Ular loyihalash va qurilish bo'limlarni “texnokratik” muhitini o'zgartirishdi. Ekologik masalalar tahlil qilish, muhokama qilish va asta-sekin loyihalash omiliga aylanishdi.
- AMBTBni tayyorlanishi natijasida rejlashtirilayotgan faoliyatdan mumkin bo'lgan ta'sirlarni oldindan ko'rishga imkoniyat tug'ildi.
- O'tgan asrning 70-chi yillari boshlarida **NEPA**ga o'xshash jarayonlar Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandyada qabul qilindi.

EBni TIZIMLARINI RIVOJLANISHINING BOSQICHLARI

- EBning «birinchi to'lqini» ushbu jarayon huquqiy-ma'muriy tizimlariga kiritilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda EB asosiy kontseptsiyalari, tamoyillari va usullari shakllandi.
- EBning «Ikkinchi to'lqini» tarqalishi – EB Shimoliy Amerika mamlakatlari qonuniy-ma'muriy tizimlar chegarasidan chiqib ketdi. 80-chi yillardan boshlab butun Yevropada AMBTB to'g'risida qonunni tayyorlash ustida ishlay boshlandi.
- 1985 yil 3 iyulida **Yevropa Ittifoqi Direktivasi** (Yo'riqnom) qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida barcha Yevropa mamlakatlari milliy qonunchiligiga ma'lum loyihalar bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida EB jarayonini kiritilishi talab qilindi.
- Yevropa mamlakatlarida EB loyihalarni muvaffaqiyatli qo'llanilishi bu yondashuvni universalligini va moslashuvchanligini taqdim etdi.

EBni TIZIMLARINI RIVOJLANISHINING BOSQICHLARI

EBning «uchinchi to'lqini» bir necha jihatlarga ega:

a) EB halqaro darajada ko'proq qo'llanilmoqda – Yevropa Iqtisodiy Komisiyassi doirasida Espo shahrida (Finlyandiya) 1991 yilda o'tqazilgan anjumanda 29 mamlakat va Yevropa hamjamiyati transchegaraviy ekologik oqibatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan loyihalar uchun **«Transchegaraviy kontekstdagi (miqyosdagi) AMBTB bo'yicha Konvensiya»** qabul qilindi. Bu Konvensiyaga asosan AMBTB materiallari/ma'lumotlari qo'shni mamlakat uchun to'liq taqdim etilishi (ochiq) bo'lishi shart

b) **EB talablarini xalqaro tashkilotlar tomonidan** (Osiyo Tarraqiyot Banki, Juhon Banki, BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi) **qabul qilinishi** EBning keng tarqalishida (ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda) muhim bosqich bo'ldi.

v) Sobiq sotsialistik mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy tizim o'zgarishi natijasida va ushbu mamlakatlardan ko'pchiligi Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish maqsadida EB, AMBTB va Ekologik Ekspertiza to'g'risidagi qonunlarni deyarli barcha “o'tish iqtisodiyotiga” ega bo'lgan mamlakatlar tomonidan qabul qilindi

g) Strategik Ekologik Baholashga e'tiborni ko'payishi.

EBni TIZIMLARINI RIVOJLANISHINING BOSQICHLARI

Sobiq Sovet Ittifoqi davrlarda alohida Ekologik Ekspertiza qonuni qabul qilinmagan. Lekin yirik loyihalar, davlat dasturlarini ishlab chiqish jarayonida, texnik-iqtisodiy hujjatlar tarkibida “Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari” bo'limi bo'lishi shart edi.

- O'zbekiston Respublikasining “Ekologik Ekspertiza” to'g'risidagi qonun 2000 yilda qabul qilingan

Transchegaraviy muammolar – misol?

- Yevropa
- O'rta Osiyo
- Shimoliy Amerika

O'zbekiston ekologik qonunchiligiga asosan EB jarayoni quyidagilardan iborat:

Tashabuskor-lar tomonidan tayyorlanadi gan atrof muhitga ta'sirni baholash (AMB TB) bayonnomasi;

Ekologik ekspertiza;

Davlat tashkilotlari bilan kelishish (tasdiqlash)

O'ZBEKISTONDA AMBTB JARAYONINING BOSQICHLARI

- 1-nchi Atrof muhitga bo'ladigan ta'sirlarning bayonnomasining loyihasi (proekt ZVOS) – barcha loyihalar uchun
- 2-nchi Atrof muhitga bo'ladigan ta'sirlarning bayonnomasi (ZVOS – zaruriyat bo'lsa)
- 3-nchi Ekologik oqibatlar to'g'risida bayonnomasi (ZEP)



TIQXMMI
"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI"
MTU
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

